



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 7-fevral, shanba,
11-12 (24.191-24.192)-son

O'zbek xalq
maqoli

Elga
qo'shilgan
moy yutar

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

► Prezident qaroriga ko'ra

APREL — Amir Temur oyligi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-fevral kuni qabul qilgan qarorga ko'ra, joriy yilda yurtimizda buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi keng nishonlanadi.

Qaror bilan har yili **aprel oyi yurtimizda "Amir Temur oyligi"** deb e'lon qilindi.
Shu yilning **9-10-aprel kunlari** O'zbekistondagi Islom

sivilizatsiyasi markazida "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkaziladi.

"Temur tuzuklari" asarining ilmiy izohli matni **fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus** tillarida chop etiladi.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan **pochta markalari va konvertlar, taqvimlar va ko'rgazmali axborot vositalari** turkumi yaratiladi, **esdalik, kumush va oltin yubiley tangalari** muomalaga chiqariladi.



SAMARQANDDA XAVFSIZ MUHITNI TA'MINLASH CHORALARI BELGILANDI

Viloyatimizda xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha joriy yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

27-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni barpo etish hamda jamoat xavfsizligini ishonchli ta'minlashga qaratilgan namunaviy amaliyotni joriy etish yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan yig'ilishda viloyatdagi huquq-tartibot organlari, boshqarma va idoralar rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari, hududiy ichki ishlar bo'linmalari boshliqlari hamda profilaktika inspektorlari qatnashdi.

Yig'ilishda Ichki ishlar vaziri A.Toshpo'latov, viloyat hokimi A.Boboyev davlatimiz rahbari tomonidan Toshkent shahri mas'uliyatini ta'minlash yuzasidan belgilab berilgan vazifalar Samarqand uchun ham xosligini qayd etib, bu borada e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalarga to'xtaldilar. Tuman va shaharlarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan profilaktik tadbirlar tanqidida tahlil qilindi.

Xususan, Samarqand shahrida jinoyatchilik darajasining oshgani keskin tanqid ostiga olindi. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik, giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda yashirin iqtisodiyotni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yig'ilishda joriy yilda viloyatda xavfsiz hududlarni shakllantirishga qaratilgan aniq va

maqsadli chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, viloyat hududidagi 1063 mahallada xavfsiz muhitni ta'minlash bo'yicha kompleks ishlar olib borish, ijtimoiy profilaktika doirasida "xonadon-ma-xonadon" ishlashning namunaviy mexanizmini joriy etish rejalashtirildi.

Narkojinoyatchilik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining oldini olish borasida mas'ul idoralar bilan hamkorlikda tizimli choralar ko'rish, tuman va shaharlarda, xususan, uyushmagan yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "Samarqand tajribasi"ni joriy etish vazifalari belgilandi.

Kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan hamda "qizil" toifaga kiritilgan mahallalarga birlashtirilgan mas'ul rahbar va xodimlar mas'uliyatini oshirish, bu mahallalardagi profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda bildirilgan fikrlar asosida hududlarda qo'shimcha zamonaviy videokuzatuv vositalarini o'rnatish va ularni viloyat ichki ishlar boshqarmasining "Yagona tezkor boshqaruv markazi"ga bosqichma-bosqich ulash, shuningdek, ko'ngilochar maskanlar, 24 soat faoliyat yurituvchi gastronomik ko'chalar, savdo markazlari hamda ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan hududlarda jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha kompleks choralar belgilab olindi.

Ichki ishlar vaziri boshchiligidagi ishchi guruh tuman va shaharlarda bo'lib, "poytaxt namunasi" asosida xavfsiz muhitni shakllantirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan manzilli chora-tadbirlarni o'rgandi.



Imom Moturidiy

majmuasida xorijlik mutaxassislar hamkorligida buyondkorlik ishlari olib borilmoqda

Samarqand zaminida ko'plab diniy ulamolar yashab, faoliyat ko'rsatgan va Markaziy Osiyoda islom dini aynan shu hudud orqali tarqalgan. Bugun dunyodagi 2,5 milliard musulmonning qariyb yetmish foizi Moturidiy ta'limotiga amal qilishi shundan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, o'tgan yil yurtimizda Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlandi. Ulug' alloma hayoti va ilmiy merosini o'rganish hamda keng targ'ib etishga qaratilgan xalqaro va respublika ahamiyatidagi anjumanlar o'tkazildi. Moturidiylik ta'limoti bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar dunyo olimlari nigohida bo'ldi. Shu bilan birga, sana munosabati bilan Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasida qurilish-obodonlashtirish ishlari boshlanib, ulug' alloma va ulamolar merosini o'rganish maqsadida "Chokardiza" qabristoni hududida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Samarqand arxeologiya instituti olimlari tomonidan "Chokardiza"da olib borilgan qazishma ishlari davomida buyuk faqih, islom huquqshunosligining mukammal asari hisoblangan "Hidoya" kitobi muallifi Burhoniddin Marg'inoniy dafn etilgan joy aniqlandi. Bu yerda alloma sharafiga maqbara bunyod etiladigan bo'ldi.

Ayni paytda Moturidiy bobomizning boy ilmiy-ma'naviy merosi va ta'limotini chuqur o'rganish, tadqiq etish hamda mamlakatimizda islom

qadriyatlarini asl holatda targ'ib qilish va sof aqidaviy yo'nalishni keng yoyish maqsadida Imom Moturidiy majmuasi hamda islom olamida muhim o'rin tutgan to'rt mingdan ziyod olimu muhaddislar dafn etilgan "Chokardiza" qabristonida qurilish-bunyodkorlik ishlari davom etmoqda.

— Abu Mansur Moturidiy 870-yilda Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topgan bo'lib, umrining oxirigacha, ya'ni 944-yilga qadar shu zaminida yashagan, — deydi Imom Moturidiy majmuasi rahbari Ulug'bek Amirov. — U zot Madinadagi Baqi' va Makkadagi Mualla qabristonlaridan keyingi muqaddaslik darajasiga ega bo'lgan, yuzlab ulug' allomalar, sayyidlal, shayxlar, imomlar va g'ozilayl mangu qo'nim topgan "Chokardiza" qabristonida dafn etilgan. Bobomiz Imom A'zam Abu Hanifa mazhabini ilmiy jihatdan rivojlantirib, islom dini ning turli oqim va guruhlariga bo'linib ketish xavfini oldindan anglagan hamda bunday parokandalikning oldini olishga qaratilgan ilohiyot ilmining asoschilaridan biri sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

2000-yilda Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan buyuk imom, faqih,

kalom ilmining yetuk namoyandasi hamda "Moturidiya" ta'limotining asoschisi Abu Mansur Moturidiy al-Xanafi as-Samarqandiy sharafiga majmua bunyod etilgan. O'tgan yili Prezidentimiz qarori asosida alloma tavalludining 1155 yilligi munosabati bilan majmuani yanada obodonlashtirish ishlari boshlandi. Xususan, ziyoratgoh hududida masjid, tahoratxona, ma'muriy bino, innovatsion muzey, kutubxona, avtoturargoh hamda "Chokardiza" qabristonida maqbara, ayvon va boshqa bir qator obyektlar barpo etilmoqda.

Hozirda ziyoratgohda "SamTexnoStroyInvest" MChJ tomonidan keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilmoqda. Qurilish tashkiloti ish boshqaruvchisi Sherzod Kamolovning ta'kidlashicha, qurilish-rekonstruksiya jarayoni o'tgan yilning avgust oyida boshlangan. Loyiha doirasida Hindiston, Pokiston, Xitoy hamda Eron davlatlaridan jalb etilgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Jumladan, obyektlarning fasad qismini xitoylik quruvchilar, gumbazlarning mozaika ishlarini eronlik ustalar, ayvon va ustunlar barpo etishni esa hindistonlik mutaxassislar amalga oshirmoqda. Qurilish jarayonida zamonaviy va yuqori sifatli materiallardan foydalanilmoqda va ishlar joriy yilning aprel oyiga qadar to'liq yakunlanishi rejalashtirilgan.


Fazliddin RO'ZIBOYEV.

TAYINLOV


Xolmuhamedov Muhsinjon Murodullayevich — "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektori vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.



Iordaniya Hoshimiylar podshohligi Senati raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiya Samarqandda



Samarqand shahrida yerusti piyodalar ko'prigi barpo etiladi




Abdusaid Ko'chimov: - Akillagan har qanday laychaga, qashqirga qarshi kurashishimiz kerak!



Kadastr xodimlari xatlovda nega rejadan ortda qolyapti?





Bunda familiyangiz, kimning jiyani ekanligingiz, qaysi hududdanligingiz yoki boyligingiz ahamiyatsiz

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yoshlar uchun eng jozibador va istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, dasturlashga qiziqayotgan, biroq qayerdan boshlashni bilmayotgan, turli ma'lumotlar girdobida adashib qolayotgan yigit-qizlar istalgancha topiladi. Ularni qiynayotgan savollar ham ko'p – "ITga kirish qiyinmi?", "Bir yilda natijaga erishish mumkinmi?", "Bu soha haqiqatan ham istalgan joydan ishlash imkonini beradimi?".

Mazkur suhbatimizda dasturlashning asl mohiyati, imkoniyatlari hamda undagi adolat tamoyillarini keng yoritishga harakat qildik. Suhbatdoshimiz - IT sohasida qisqa vaqt ichida o'z o'rnini topib, e'tirofga sazovor bo'lgan dasturchi Shohjahon Qarshiboyev.

- Dasturlashni boshlash uchun nima kerak: maxsus texnik vositalarni yoki kuchli bilim?

- Bu savol - IT sohasiga kirmoqchi bo'lgan 90 foiz yoshlarning birinchi duch keladigan to'sig'i. Qisqa javob bersam - yo'q. Kengroq tushuntirsam - ko'pchilik o'ylaydiki, dasturchi bo'lish uchun xonada 3 ta monitor, qimmat "Gamer" kompyuteri va miyada faqat matematika bo'lishi kerak. Bu afsona, xolos.

Mening qiziqishim bolaligimdan boshlangan. U paytlari qo'limga tushgan telefon bormi, kompyuteri - titkilab, "ichini ag'dar-to'ntar" qilib ko'rishga qiziqardim. Buzib qo'yishdan qo'rqmaganman, aksincha, "Bu qanday ishlaydi?" degan savol menga tinchlik bermas edi. Keyinroq oddiy noutbukda kod yozishni boshladim. Tushundimki, dasturlash uchun eng muhim narsa – bu muammoni yechish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va xohish.

"Super bilim"ga kelsak, dasturlash oliy matematika iborat emas. Bu ko'proq mantiqiy fikrlash, xuddi boshqotirma yechishga o'xshaydi. Agar siz kundalik hayotdagi muammoga yechim topa olsangiz, masalan, uydan maktabga borishning eng qisqa yo'lini topsangiz ham bu algoritim, demak, siz dasturlay olasiz. Murakkab matematika, masalan, matritsalar yoki integrallar faqat dasturlashning sun'iy intellekt va Computer Vision sohasiga chuqur kirganingizda kerak bo'ladi, lekin boshlash uchun maktab darajasidagi bilim yetarli.

- Sizningcha, dasturlashni o'rganish uchun yoshlarda hech qanday to'siq yo'q. Unda ularga nima xalal beryapti?

- Odamlar reklamalarning ko'pligi sababli noto'g'ri tanlov qilib qo'yishdan qo'rqadi. Tasavvur qiling, siz ITga qiziqib boshladingiz va YouTube yoki Telegramga kirdingiz. U yerda nima bo'layapti? Bir blogger chiqib, "Python o'rganing, bu kelajak tili!" desa, ikkinchisi chiqib, "Yo'q, Python sekin, C++ yoki Java o'rganing, haqiqiy dasturchi shuni bilishi kerak!", deydi. Uchinchisi esa: "Kod yozish o'ldi, sun'iy intellektni o'rganing, bu'lmasa, ishsiz qolasiz!" deb vahima qiladi. To'rtinchisi: "O'qish shart emas, 1 oyda 1000 dollar topadigan kursim bor", deb aldaydi. Shunday qilib, sizning qarshingizda yangi muammo paydo bo'ladi. Endi nima qilishingiz kerak? Birinchi qadam - aniq maqsad va tilni tanlashdan boshlanadi.

Ko'p yoshlar "Men ITchi bo'laman", deb maqsad qo'yadi. Bu noto'g'ri va mavhum tushuncha. Xuddi "Men sportchi bo'laman" deyishga o'xshaydi. Qaysi sport? Futbolmi, boksni yoki shaxmat? Hammasini birvarakayiga o'rganib bo'lmaydi-ku. Shuning uchun, maqsadni aniq qo'yish kerak. "Men web-saytlar yaratmoqchiman" desa - Front end (HTML/CSS, JavaScript) yoki Python (Django)ni tanlashi, "Men sun'iy intellekt va robotlar bilan ishlamoqchiman", desa - ikkilanmay Pythonni, "Men telefon uchun o'yinlar yaratmoqchiman", desa - C# yoki Flutter kabi dasturlash tilini o'rganishi kerak.

Dasturlash tili - duradgorning bolg'asiga o'xshagan narsa. Duradgor bolg'ani yaxshi ko'rgani uchun emas, balki buyum yasash kerakligi uchun ishlatadi. Shu o'rinda boshlovchilarga birinchi til sifatida Pythonni tavsiya qilaman. Sababi oddiy va ko'p qirrali. Men Pythonni o'rganib ham web-sayt (Django), ham Telegram-bot, ham sun'iy intellekt Computer Vision loyihalarini qila oldim. Bu bitta o'q bilan bir nechta quyonni urish imkonini beradi.

- Dasturchilik bilan o'zingizni qanday darajaga erishishingizni o'ylab ko'rganmisiz?

- Biror ish boshladingmi, undan birdaniga "katta maosh" yoki "chet elga sayohat qilishni" o'ylash ahmoqlik, deb bilaman. Dasturlashning asl kuchi boshqa. Bu bilan siz shunday darajaga erishasizki, u yerda siz shunchaki kuzatuvchi emas, "yechim beruvchi" bo'lasiz. Dasturchi hayotdagi ovoragarchilikni ko'rib, "Eh, shunaqa ekan-da" demaydi, balki "Buni osonlashtirish mumkin-ku!" deydi.



Masalan, qaysidir dasturchi shifoxonadagi qog'ozbozlikni ko'rib, "Hamshiralar monitoring tizimi"ni yaratgan. Natijada raqamlashtirish va optimallashtirish tufayli bir soatlik ish 5 daqiqaga tushgan. Demak, dasturchilik kishini oddiy iste'molchidan - hayotni yaxshilovchi, yengillashtiruvchiga aylantiradi.

- Bir yilda ITda katta natija qilish mumkinmi? O'z faoliyatingiz misolida olib qaraganda...

- Agar bir yilda "millioner" bo'lishni nazarda tutsangiz - bu ertak. Lekin bir yilda noldan kasb egasiga aylanish, o'zini moliyaviy ta'minlash va jamiyat tan oladigan yutuqlarga erishish - ayni haqiqat. Men dastlabki 3-4 oyni faqat o'rganish bilan o'tkazdim. Oltinchi oyga kelib, kichik loyihalar qila boshladim. Keyin loyihalarim uchun DGU (elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlash rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma) oldim, Muhammad al-Xorazmiy stipendiyasi sohibi bo'ldim, "Yilning eng faol ixtirochi innovator talabasi" bo'ldim, 3 ta DGU, 10 ga yaqin maqolalar, startup g'olibliklari va eng muhimi, bilimi ortidan daromad topadigan mutaxassissga aylandim.

Bir yilda natija qilish mumkin, lekin faqat o'rganish bilan cheklanib qolmay, mustaqil amaliyot qilish zarur.

- IT sohasida istalgan joydan ishlash mumkinligi aytiladi, bu qanchalik haqiqat?

- ITning yutug'i shunda. Nafaqat istalgan joydan, balki o'zingizga qulay bo'lgan vaqtni ham tanlay olasiz. Zavod ishchisi uskuna oldida bo'lmasdan ishlay olmaydi. Dasturchining "zavodi" esa noutbuk va internet. GitHub orqali men Samarqandda o'tirib kod yozsam, jamoam Amerikada yoki Yevropada bo'lsa ham, ular shu zahoti mening kodimni ko'rib, davom ettirishlari mumkin.

Ya'ni, siz qishloqda yashaysizmi, shaharda yashaysizmi farqi yo'q, yaxshi internet bo'lsa, siz global bozordasiz.

- Yoshlar nega bu sohani tanlashi kerak, deb o'ylaysiz?

- Tengdoshlarim albatta, ITni tanlashi kerak, chunki bu - adolatli maydon. Bu yerda sizning familiyangiz, kimning jiyani ekanligingiz, qaysi hududdanligingiz yoki boyligingiz ahamiyat kasb etmaydi. Kompyuterga bularning qizig'i yo'q. Unga faqat sizning bilimingiz, mantiqiy fikrlashingiz va yozgan kodingiz muhim.

Bugun insonlarni axborot boshqarmoqda va bundan keyin dunyo texnologik taraqqiyotda ildam-ilda ildamlaydiki, ortga qaytmasligi aniq. Jarayon shunday davom etsa, dasturchilik tez orada iqtisod, tibbiyot, umuman, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida dastak vazifasini bajaradi. Qolaversa, bu soha yoshlarga g'oyalarni real mahsulotga aylantirish va tezkor moliyaviy mustaqillik imkoniyatini beradi.

Otabek UMIROV suhbatlashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda gi «Mahalla institutining jamiyatsdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida "mahalla mas'ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari shakllanishiga ko'maklashish" belgilangan.

Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda viloyatda mahalla raislarining 90 foizi oliy, 10 foizi o'rta-maxsus ma'lumotli hisoblanadi. Shuningdek, 1 foizi 30 yoshgacha, 17 foizi 31-40 yosh, 31 foizi 41-50 yosh, 38 foizi 51-60 yosh, 13 foizi 60 yoshdan kattalarni tashkil etadi.

Kattalarni o'qitish masalalari bilan androgogika fani shug'ullanadi. Pedagogika fanidan farqli o'laroq, androgogikada ta'lim oluvchining emas, balki o'qituvchining o'rni bo'lishi kerak. Ma'ruzalarda nazariy materialni o'zlashtirish o'rnga androgogika asosan aniq keyslar, munozaralar, ishbilarmonlik o'yinlari va boshqalarni hal etish shaklda amaliy mashg'ulotlar nazarda tutiladi.

Viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursida mahalla raislari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, androgogikaning asosiy tamoyillariga tayangan holda o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

Tinglovchilar bilan savol-javoblar, anketa so'rovlari monitoringi shuni ko'rsatadiki, samarali jamoatchilik bilan aloqa, notiqlik texnikasi va boshqa mavzularga talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Shuning uchun malaka oshirish kurslari o'quv dasturiga "aholini Vatanga muhabbat va istiqloq g'oyalari"ga sadoqat ruhida tarbiyalashda mahallaning o'rni hamda mahalla raislarining rahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo'llari" mavzusi kiritilgan. Trinirning fikriga ko'ra, muloqot ko'nikmalari mahala raisining fuqarolar bilan konstruktiv muloqot qilish, notiqlik ko'nikmalarini, ishonirish texnikasini egallash, ishonchli munosala

Mahalla raislari qanday o'qitiladi?

batlarni o'rnatish, muzokaralar olib borish va noqulay vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatidir.

Prezidentimizning O'zbekiston xalqi va Oliy Majlisga murojaatnomasida "... qaysi mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri loyiha qilib, uni asoslab bersa, zarur mablag'ni olsin. Shunda adolatdan bo'ladi," deb ta'kidlagan edi.

Shundan kelib chiqib "Mahallada menejment funksiyalarini samarali qo'llash, natijador qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish" mavzusi bugungi kunda eng dolzarb bo'lmoqda.

Umuman, bugungi rais "hard skills"ga, ya'ni qattiq yoki texnik ko'nikmalar - bu konkret kasbga oid, o'qitish mumkin bo'lgan, o'lchanadigan va sertifikat yoki diplom bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan maxsus va kasbiy bilimlar va mahoratlar, masalan, xorijiy til bilish, moliyaviy hisob-kitob va kompyuter dasturlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari raislar "Soft skills" - yumshoq ko'nikmalarga ham ega bo'lishi kerak. Ular kasbga bog'liq bo'lmaydi, lekin insonning hayotdagi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Odamlar bilan muomala qilish madaniyati, nizolarni hal qilish qobiliyati, odamlarni ishonirish mahorati, moslashuvchanlik, mam'uliyatlilik, puxtalik, har ishni o'z vaqtida bajarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar "yumshoq ko'nikmalar"ga misol bo'ladi.

Barcha o'quv dasturlari tinglovchilar tarkibining o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy ish tajribasi, shuningdek, yuqorida qayd etilgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuziladi. Birinchi saylangan raislar uchun o'qitish dasturi tajribali raislar o'quv dasturidan farqli bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, birinchi saylangan raislar uchun o'qitish dasturida asosiy tushunchalar samarali kommunikatsiyalar, notiqlik mahorati, mojarolarini hal etish va jamiyat bilan muloqot va o'zaro hamkorlikni yuritish qoidalari, jamiyat bilan kommunikatsiyalarda foydalanish bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, yaqinda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va

"O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Davlat dasturi loyihasida boshqa masalalar qatori asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi 2 mungdan ziyod qonunchilik hujjatlari xatlovdan o'tkazilishi belgilanmoqda. Bu orqali ulardagi kolliziyalar, nomuvofiqliklar, «noaniq» qoidalar va boshqa korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar bartaraf etilishi ko'zda tutilyapti.

Demak, mahalla raislari ham bu jarayondan xabardor bo'lishi, uning bevosita ishtirokchisiga aylanishi kerak. Qolaversa, loyihada davlat organlari rahbarlarining o'zi rahbarlik qilyayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo'l qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

Bu tabiiyki, raislarga siyosiy uyg'oq bo'lish talabini qo'yadi. Zotan, loyihada siyosiy lavozimlarni egallagan davlat xizmatchilarining xalq oldida mas'ulligi, ularga nisbatan ishonchsizlik bildirilishi asoslari va tartibi nazarda tutilyapti.

Qayd etish o'rinaliki, 24 soat nazariy, 12 soatlik amaliy mashg'ulotlarda bu kabi masalalar ham e'tiborga olingan. Kelgusida asosiy qism amaliy mashg'ulotlarda ishbilarmonlik o'yini, keys vazifalarini hal etish, haqiqiy voqealar videoroliklarini tahlil qilish kerak, deb o'ylaymiz. Tinglovchilarning maqomi va darajasini hisobga olgan holda ta'lim oddiy va nostandart vaziyatlarda jamoa va xalqni samarali boshqarish bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni, shuningdek, kommunikativ fazilatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Darvoqe, o'quv kurslari dasturlarida nazarda tutilgan barcha talablarni bajargan va sinov imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikatlar beriladi.

Toshtemir ERGASHEV, viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursi direktori.

Autodonorlik tartibi tasdiqlandi:

donor qoni zaruratda donorning o'ziga ishlatiladi

Yurtimizda qon bilan ishlash xizmati muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash barobarida aholi orasida beg'araz donorlik harakatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 28-yanvarida Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan donor qoni va uning tarkibiy qismlarini keyinchalik zarurat tug'ilganda donorning o'ziga quyishni nazarda tutuvchi autodonorlik tartibi tasdiqlandi.

Autodonorlik — bu inson o'z qonini oldindan topshirib, keyinchalik tibbiy zarurat yuzaga kelganda shu qonni o'ziga qayta quyish amaliyoti hisoblanadi. U asosan donorga boshqa shaxs qonini quyish imkonini bo'lmagan, qon guruhi kam uchraydigan yoki donor yoki uning qonuniy vakili allogon qon quyilishini rad etgan hollarda qo'llaniladi.

Nizomga ko'ra, autodonorlik 18 yoshga to'lgan shaxslar tomonidan davlat sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalarida, donor yoki uning qonuniy vakilining yozma roziligi asosida, bepul amalga oshiriladi. Autodonorlik jarrohlik amaliyotidan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida yoki amaliyot davomida amalga oshirilishi mumkin.

Nizomda qon olishdan oldin o'tkaziladigan laboratoriya tekshiruvlari, qarshi ko'rsatmalar hamda qon va uning tarkibiy qismlarini saqlash muddatlari aniq belgilan berilgan. Xususan, bir martalik qon olish hajmi 500 millilitrdan oshmasligi lozim.

Shuningdek, autodonorlik doirasida olingan qon va uning tarkibiy qismlarini boshqa shaxslarga quyish qat'iyan taqiqlanadi. Belgilangan muddatda foydalanilmagan qon sanitariya qoidalariga muvofiq utilitatsiya qilinadi. Qayd etilishicha, nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Autodonorlik donorga allogon, ya'ni begona qon quyishning imkonini mavjud bo'lmasa, donorning qon guruhi kam uchraydigan bo'lsa yoki donor yoki uning



qonuniy vakili begona qon quyishni rad etgan hollarda amalga oshiriladi.

Autodonorlik uchun donordan qon va uning tarkibiy qismlarini olishdan oldin tibbiyot muassasasidagi donorning davolovchi shifokori tomonidan uning hayotiy ko'rsatkichlari, ya'ni arterial bosim, nafas olish tezligi, yurak urishi, tana harorati va boshqalarning barqarorligi ta'minlanishi lozim. Autodonorlikdan oldin donorning qoni laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazilishi shart.

Donorda OIV (OITS) infeksiya, V yoki C virus markerlari, zaxm, qandli diabet, gijohvandlik, buyrak kasalliklari hamda gematokrit ko'rsatkichi 25 foizdan kamligi aniqlansa autodonorlikka yo'l

qo'yilmaydi.

Donordan olingan qon va uning tarkibiy qismlari jarrohlik amaliyotidan oldin olingandan so'ng, tibbiyot muassasalarining qon va uning tarkibiy qismlarini saqlash uchun mo'ljallangan xonalardagi muzlatkich yoki sovutkichlarda vaqtincha saqlash uchun joylashtirilishi kerak. Autodonorlik uchun donordan olingan qonning plazmasi u olingan kundan boshlab muzlatkichlarda -25 - -40'S gacha bo'lgan haroratda bir yilgacha, qonning eritrotsitar massasi esa u olingan kundan boshlab sovutkichlarda +2'S-+6'S gacha bo'lgan haroratda 35 kungacha saqlanadi.

Joriy yildan boshlab yurtimizda beg'araz qon donorligi harakatini rivojlantirish maqsadida har oy "Birga hayotni saqlaymiz" milliy donorlik aksiyasi o'tkazilishi ham belgilangan. Shuningdek, 2027-yil 1-martdan "Qon mahsulotlari elektron hisobini yuritish" axborot tizimi joriy etiladi.

Sojida ERKABOYEVA, viloyat qon quyish stansiyasi shifokori.



Tomosha boshlandi! Juda jiddiy tomosha, faqat uning aktyorlariyu tomoshabinlari ham oʻzimiz. Biz, yaʼni bugun urfga kirgan ibora – globallashayotgan jamiyat fuqarolari.

Undagi tomoshalar naq “Usta va Margarita”dagi Varete teatrida roʻy bergan hodisalarga oʻxshaydi. Unda ham tomoshabin shaytonning hashamli shoulariga uchib, oʻz kiyimlaridan voz kechib, qimmat liboslariga burkanib chiqqanidek, bunda ham qimmat hujjatlar nechuk bir necha marta nafaqat Amerika, balki butun dunyo jamoatchiligini uygʻotib yuboryapti. Umu-man, Jeffri Epshteyn deganlari kim oʻzi?

EPSHTEYN KIM?

Jeffri Epshteyn amerikalik moliyachi va milliarder. 1953-yilda Nyu-Yorkda tugʻilgan. 1971-1974-yillarda Manxettendagi xususiy maktablardan birida fizika-matematikadan dars bergan. Keyinroq, yuqori lavozimdagi insonlar bilan yaqin aloqalar orqali turli firmalarga asos solgan.

Keyin u firibgarlik yoʻli bilan oʻzlashtirilgan aktivlar-ni qaytarib olishga qaratilgan Intercontinental Assets Group konsalting firmasini tashkil etdi. 1988-yilda sheriklari - Stiven Xoffenberg (Ponzi sxemasini boshqarishda ayblangan) va Forbes roʻyxatiga kiritilgan milliarder, Victorias Secret egasi Lesli Veksner bilan J.Epstein & Company (keyinchalik The Financial Trust Company) boshqaruv firmasini ochdi, uning aktivlarini 1987-yildan 2007-yilgacha boshqargan.

Epshteynning boyligi nomaʼlum. Uning Manxettenda xususiy uyi, Florida shtatining Palm-Bich shahrida qasri, Parijda kvartirasi, Nyu-Meksikada ranchosi va Kichik Sent-Jejms va Buyuk Sent-Jejms (Karib dengizidagi Virjiniya orollarining bir qismi) xususiy orollari bor edi. Moliyachi oʻzining baʼzi aktivlarini offshor yurisdiksi-yalarda saqlagan.

2008-yilda Epshteyn voyaga yetmagan qizni zoʻrlashda aybdor deb topildi. 2019-yilda moliyachi odam savdosi va fohishabozlikda ayblanib hibsga olindi. Oʻsha yili sud boʻlishini kutmay, joniga qasd qilgani tasdiqlangan.

Epshteynga voyaga yetmagan qizlarni yollash va jin-siy ekspluatatsiya qilish tarmogʻini tashkil etgan, degan ayblovlar qoʻyilgan. Ularning bazilarini oʻzi zoʻrlagan yoki badavlat mijozlarga sotgan. Moliyachi oʻzining shaxsiy orolida taniqli shaxslar uchun xususiy ziyofatlar uyushtirgan deb taxmin qilinmoqda.

Bugun ommaviy axborot vositalarida aytilayotgan Epshteynning fayllari, shuningdek, “pedofillar boʻyxati” nomi bilan ham tanilgan hujjatlar nimalardan iborat? Ushbu ibora bilan aytiladigan fayllar minglab hujjatlarni,

jumladan, guvohlarning koʻrsatmalari, manzil kitoblari, sertifikatlar, schyot-fakturalar, guvohlarning intervyu transkriptlari, politsiya hisobotlari va elektron poch-ta xabarlarini oʻz ichiga oladi. Epshteynning roʻyxati, boshqa narsalar qatori, moliyachining tanishlari, jum-ladan, koʻplab mashhur shaxslar, siyosatchilar va ishbi-larmonlar haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Ular orasida Bill Klinton, Donald Tramp, shahzoda Endryu (hozirgi Britaniya qiroli Charlz III ning ukasi), Saudiya Arabistoni valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon, illyuzionist Devid Kopperfild, aktyor Dastin Xoffman, Microsoft asoschisi Bill Geyts va boshqalar bor.

Ushbu hujjatlarda ayrim siyosatchilar yoki ishbilar-monlarning paydo boʻlishi ularning jinsiy jinoyatlarga aloqadorligini anglatmaydi. Ammo bu ularning raqibla-riga ularning ehtimoliy sherikligini taxmin qilish imkonini beradi.

Epshteyn ishdan Virjiniya Juffrening (zoʻrlangan jabrdiyda) sherigi Gislayne Maksvellga qarshi daʼvo-si bilan bogʻliq baʼzi hujjatlar 2019- va 2024-yillar oraligʻida qisman elon qilindi. 2023-yil dekabr oyida sud qarori bilan Epshteyn bilan bogʻliq shaxslar nomi koʻrsatilgan hujjatlarni eʼlon qilish boshlandi. 2024-yil-da Juffrening daʼvosi boʻyicha sudga taqdim etilgan hujjatlarning yakuniy qismi maxfiylashtirildi. Ular jami 4500 sahifali 215 dan ortiq hujjatdan iborat boʻlib, unda AQShning 42-prezidenti Bill Klinton singari 150 dan ortiq taniqli shaxslarning ismi tilga olingan. Trampning 2025-yil 20-dekabrda farmonidan soʻng, Epshteyn-ning qoʻshimcha hujjatlari eʼlon qilina boshladi.

Ayni kunlarda shu hujjatlarning aksariyati osh-kor etilmoqda. Ular orasida dunyo miqyosidagi jiddiy shaxslarning borligi ushbu fayllarga qiziqishni yanada oʻrttirgan. Rasmiy munosabatlar kutilishidan oldin bu gaplar butun dunyoga tarqab boʻldi, lekin baribir aniqlik kiritilishini kutayotganlar koʻp.

OGOHLIK QOʻNGʻIROGʻI

Ha, bugungi jamiyat yana bir jiddiy sinov qarshi-sida qolgan. Varete teatri tomoshabinlari singari oʻz kiyimidan, yaʼni oʻzligiyu qadri, nomus oriyu hayosidan voz kechib, nafsning eng jirkanch oʻyinlariga mahliyo boʻlyapti.

Qizigʻi, Epshteyn fayllari orasida samarqandlik qiz ham Epshteynga maktub yozgani va maktubda u Amerikaga borish uchun hamma narsaga tayyor ekanligi aytilmoqda. Yanayam qizigʻi, koʻplab davlat-larda istiqomat qilayotgan shunday qizlarning elektron maktublari mavjudligi yana bir jumboq. Odam savdosi, toʻgʻrirogʻi qizlar savdosi bilan shugʻullangan bu inson-ning qamrov koʻlami shunchalik keng boʻlganmi yoki bu axborot xurujining bir koʻrinishimi?

Bu ishga hamma aralash, hamma davlatlaru xalqlar bu haqda bilishi lozim, degan vasvasa mavjudmi unda? Aslida bu vasvasa boʻlmasa-da, nafsning bu kabi jir-kanch oʻyinlari har bir jamiyatda u yoki bu qadar bor. Ehtimol, buyam bir ogohlik qoʻngʻirogʻidir. Oʻzligimiz, qadriyatlarimiz, insoniyeligimizni asrab qolishga undayot-gan jiddiy qoʻngʻiroqdor bu?!

Gulruh MOʻMINOVA.

Oilasida notinchliklar kuzatilgan, zoʻravonlikka uchragan ayollar bilan oʻtkazilgan uchrashuvlarda aksariyat ayollar shu savol bilan murojaat qildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boʻyicha vakili – Ombudsmanning Samarqand viloyatidagi vakili Otabek Toshniyozov, viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Samarqand shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi vakillari ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi viloyat boʻlimidagi sharoitlar bilan tanishar ekan, ular bilan ochiq muloqot uyushtirdi. Zoʻravonlik va turli tahdidlarga uchragan xotin-qizlarning muammolarini oʻrgandi.

- Zoʻravonlikka uchragan xotin-qizlar masalalarini oʻrganar ekanmiz, ularning sabablari turlicha ekanligi va bu masalada bir nechta tashkilotlar hamjihatlikda ishlashi lozimligi ayon-lashadi, - deydi Otabek Toshniyozov. - Keyingi yillarda ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi bu masa-ladagi uzoq yillik muammolarni hal etdi. Xususan, zoʻravonlik yoki taz-yiqqa uchragan ayollar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlariga tezkor

Erkaklar bilan kim ishlaydi?



yordam koʻrsatish maqsadida markaz-da shoshilinch qabul boʻlimlari va maxsus birlamchi koʻmak xonalari tashkil etilgan. Ushbu koʻmak markazlari tez tibbiy yordam, psixologik va huquqiy maslahatlar hamda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatmoqda. Bu yerda zarurat tugʻil-ganda, jabrlanganlarga 3 kungacha vaqtinchalik boshpana beriladi. Uzoq muddatli himoya lozim boʻlsa, ayollar-ni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga yoʻnaltiriladi.

- Turmush oʻrtogʻimning tahdid,

zoʻravonligi tufayli bir necha marta turli tashkilotlarga murojaat qilishimga toʻgʻri kelmoqda, - deydi qoʻshrabotlik N.S. – Himoya orderi ham oldim, ayni kunlarda reabilitatsiya markazida menga zarur yordamlar koʻrsatildi. Shu yerda yashash imkonim bor. Toʻgʻri, bir necha tashkilot vakillari ahvolimizni oʻrganyapti, bizga yordam bermoqchi. Lekin men bu yerda davomli yashay olmayman. Yana shu zulmga qaytib borishimga toʻgʻri keladi. Xoʻsh, nega erkaklar bilan hech kim shugʻullan-

“Shirkat”^{larga} reydy: kimda kamchilik, kimda namuna?

Hozirgi sovuq kunlarda aholiga xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar, ayniqsa koʻp qavatli uy-joylarga masʼul boshqaruv servis kompaniyalari hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ishi koʻpayadi.

Viloyat hududiy qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi nazorati inspeksiyasi bu boradagi ishlarni oʻrganish, xizmat koʻrsatish sifatiga baho berish maqsadida tungi reydy tadbirlari oʻtkazdi.

Jumladan, Samarqand shahrining Registon mahallasida joylashgan koʻp qavatli uylarga xizmat koʻrsatuvchi “Registon plyus” MChJ boshqaruv servis kompaniyasi faoliyati oʻrganilganda, ishlar qoniqarli tashkil etilgani kuzatildi. Ayrim kam-chiliklar yuzasidan masʼullarga tushuntirish va tegishli tavsiyalar berildi.

Qorasuv massivida faoliyat yuritayotgan “Yangi uylar servisi” xususiy uy-joy mulkdor-lari shirkatida mavsumga tayyorgarlik yaxshi yoʻlga qoʻyilgani maʼlum boʻldi. Qum-shagʻal aralashmasi kun davomida ishlatilgani, hozirda esa yana qum-shimcha zaxira yaratish choralari koʻrilayotgani kuzatildi.

Biroq, shu massivdagi “Nur Sharq Tess” boshqaruv servis kompaniyasi faoliyatida qator jiddiy kamchiliklar aniqlandi. Xususan, 24/7 dispetcherlik xizmati talab darajasida yoʻlga qoʻyilmagan. Zarur asbob-uskunalar va qum-tuz zaxirasi mavjud emas, koʻp qavatli uylarning kirish-chiqish joylari hamda piyodalar yoʻlaklarini qordan tozalash, inert materiallar sepish ishlari bajarilmagan.

Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan kom-paniya masʼullariga tegishli koʻrsatmalar berilib, kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish vazifasi yuklatildi.

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal nazorat inspeksiyasi axborot xizmati.

▶ Zoʻravonlikka qarshimiz

maydi? Ularni faqat profilaktika inspek-tori bilan qoʻrgʻitib boʻlmaydi-ku, ular farzandlari uzoqda boʻlgani bilan bir oy ichida oʻzgarib qolmaydi. Men oilamni asrab qolishni, ajralib ketmaslikni juda ham istayman, lekin maʼlum muddat zulmdan xoli boʻlishim bilan muammo yechilib qolmaydi. Keyin qanday yoʻl tutaman, axir?

Ayollar orasida shunday savollarni koʻndalang qoʻyayotganlar boʻldi. Bu boʻyicha taklif va fikrlar inobatga olini-shi qayd etildi.

Shu oʻrinda eslatish lozim, taz-yiq yoki zoʻravonlik holatlari boʻyicha quyidagi xizmatlarga murojaat qilish mumkin:

- **102** — *ichki ishlar organlari,*
- **112** — *yagona dispetcherlik xizmati,*

• **1146** — *ijtimoiy himoya tizimida-gi «Ishonch telefoni», «Inson» ijtimoiy xizmatlari markazlari va profilaktika inspektorlari.*

Murojaatlar 24 soat ichida koʻrib chiqiladi. Zaruratga koʻra profilaktika inspektori himoya orderini rasmiylashti-radi va ayollar birlamchi koʻmak xo-nasiga joylashtiriladi.

Oltinoy ASHUROVA.

Xalqaro taʼlim dasturlari tatbiq etiladi

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida “Oʻzbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturi loyihasi jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazildi. Loyihada kasbiy taʼlim tizimini viloyatimizning barcha shahar va tumanlari kesimida isloh qilish, har bir viloyat, tuman va mahallaning mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kasb va mutaxassisliklar boʻyicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilangan.

Buning uchun texnikumlar-da oʻqitiladigan yoʻnalishlarni shahar va tumanlarning iqtisodi-yot talablariga moslashtirish, amaliy taʼlimni ishlab chiqarish bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshirish hamda zamonaviy oʻquv-amaliy ustaxonalarni tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Kasbiy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida qator vazifalar nazarda tutilgan.

Jumladan, 2026/2027-oʻquv yilida 9-sinf bitiruvchilarining tex-nikumlarga qamrovini 35 foizga, 2030-yilgacha 50 foizga yetka-zish, keyingi oʻquv yili qabul ja-

rayonlarida dual taʼlim bilan qam-rovni 20 foizga, 2030-yilgacha 40 foizga oshirish belgilanmoqda.

Shu maqsadda 2027-yilda viloyatdagi texnikumlarning ikkita-si rekonstruksiya qilinadi, beshta texnikum mukammal taʼmirlana-di. 2030-yilgacha 7 ta texnikum rekonstruksiya qilinsa, 18 tasi mukammal taʼmirdan chiqariladi.

Bu yil malaka toifasiga ega oʻqituvchilar ulushini 35 foizga, kasbiy sertifikatga ega taʼlim ustalari ulushini 5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Joriy yilda viloyatdagi kamida oʻnta texnikumdagi taʼlim ja-

rayonlariga Germaniya, Koreya, Xitoyning xalqaro taʼlim dasturlari tatbiq etiladi. Bunday muassa-salarning 45 nafar pedagoglari xorijga malaka oshirish va staji-rovkaga yuboriladi. Texnikumlarga 10 nafar xorijiy til mutaxassislari jalb qilinadi.

Xalqaro va qoʻshma taʼlim dasturlari asosida 850 nafar, 2030-yilgacha 2000 nafar oʻrta boʻgʻin kadrlar tayyorlanadi. Bitta Kasbiy mahorat texnikumi tash-kil etilib, joriy yilda “WorldSkills” xalqaro tashkiloti shafeligida tur-kiy davlatlar oʻrtasida “WorldSkills Turon” kasblar chempionati oʻtka-zish belgilab olindi.

Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi kasbiy taʼlim tizimini mahallani rivojlantirishning muhim tayanchiga aylantirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga yoʻnaltirish hamda hududlar iqtisodiy salohi-yatini oshirishga xizmat qiladi.

Gʻayrat NORQULOV, viloyat kasbiy taʼlim boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari.

Taʼlimning boshlangʻich, umumtaʼlim, professional va oliy bosqichlari oʻrtasida uzluksizlikni taʼminlash orqali yoshlarga qiziqishi va qobiliyatiga mos bilim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi va yetuk mutaxassis boʻlib yetishishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Ilmiy darajali **TEXNIKUM** oʻqituvchilari soni 18 nafarga yetdi



Prezidentimizning 2022-yil 1-apreldagi “Samarqand davlat tibbiyot universitetini tashkil etish va sohada-gi kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, Abu Ali ibn Sino no-midagi toʻqqizta - Samarqand, Soʻzongaron, Siyob, Urgut, Past Dargʻom, Kattaqoʻrgʻon, Paxtach, Ishtixon va Payariq jamoat salomatligi texnikumlari universi-tetimizga birliktirildi. Bugungi kunda universitetning barcha fakultet va kafedralari bilan jamoat salomatligi texnikumlari oʻrtasida samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyil-di. Professor-oʻqituvchilarimiz texnikumlarda mahorat darslari, ochiq mashgʻulotlar va oʻquv seminarlarini muntazam oʻtkazib kelmoqda. Oʻquvchilar uchun dol-zarb mavzularda davra suhbatlari tashkil etilib, hamkor-likda elektron darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar va uslubiy materiallar yaratilmoqda. Jumladan, bugungacha 88 ta darslik, oʻquv-qoʻllanma va uslubiy qoʻllanma tayyorlan-di. Natijada oʻtgan oʻquv yili ilmiy darajaga ega boʻlgan texnikum oʻqituvchilari soni 18 nafarga yetdi.

Viloyatimizdagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat sala-matligi texnikumlari Rossiya, AQSH, Koreya, Qozogʻiston, Qirgʻiz respublikasi, Belarus, Tojikiston tibbiyot kollejlari bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatdi. Siyob jamoat salomat-ligi texnikumida mamlakatimizda ilk bor qoʻshma taʼlim dasturi joriy etildi. Unga koʻra, Janubiy Koreyaning Dae-Jeong tibbiyot universiteti bilan hamshiralik ishi yoʻnali-shida “2+1” va “2+2” taʼlim modellari boʻyicha kadrlar tayyorlash rejalashtirilgan. Bu dasturga muvofiq, talabalar dastlab ikki yil Siyob texnikumida, keyinchalik esa bir yoki ikki yil Koreyada taʼlim oladi. Universitetda tashkil etilayot-gan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda texnikum oʻquvchi-lari ham ishtirok etyapti.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruv-chilar mutaxassisliklariga mos bakalavriat yoʻnalish-larida suhbat hamda toʻlov-kontrakt asosida universi-tetimizning 2-bosqich talabasi boʻlish huquqiga ega. Ushbu imtiyozdan texnikumni “a lo” va “yaxshi” baholar bilan tamomlagan, baholarining kamida 50 foizi (tibbiy yoʻnalishlarda 85 foiz) “a lo” boʻlgan bitiruvchilargina foydalanishlari mumkin.

Bulardan tashqari, tibbiyot texnikumlarida mod-diy-texnik bazaning mustahkamlangani samarasida taʼlim jarayonlariga innovatsion va amaliy taʼlim usullari joriy etilmoqda. Buning uchun zamonaviy oʻquv-simul-yatsion auditoriyalar tashkil etilib, ular orqali oʻquvchilar amaliy koʻnikmalarini mustahkamlayotir.

Xulosa qilib aytganda, universitetimiz va Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlari oʻrtasidagi samarali hamkorlik taʼlim sifatining oshishiga, ilmiy-tad-qiqotlar, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar va xalqaro aloqalarning yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qilmoqda.

Jasur RIZAYEV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor.



SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI

Yuqori malakali professor-o'qituvchilarni quyidagi kafedralardagi lavozimlarga tanlov asosida ishga taklif etadi:

T/r	Lavozimlar va fanlar nomi	O'rinlar soni
1	O'simlikshunoslik kafedrasida dotsenti (o'simlikshunoslik)	2
2	Agrotexnologiya kafedrasida dotsenti (agrokimyo)	1
3	Dorivor o'simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida dotsenti (oziq-ovqat texnologiyasi)	1
4	Dorivor o'simliklar va oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi (chorvachilik)	1
5	Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi (o'zbek tili)	1
6	Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi (oliy matematika)	1
7	Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti (iqtisodiyot)	1
8	Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida katta o'qituvchisi (buxgalteriya hisobi)	1
9	Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida katta o'qituvchisi (marketing)	1

Hujjatlar (rektor nomiga ariza, pasport nusxasi, ma'lumotnoma (obyektivka), 2 dona 3x4 sm. o'lchamdagi fotosurat, tasdiqlangan ilmiy va uslubiy ishlar ro'yxati, diplomlardan nusxalar, so'nggi 3 yilda malaka oshirganligi to'g'risida hujjat nusxasi) gazetada e'lon chiqqan kundan boshlab, bir oy muddatga cha qabul qilinadi.

Nomzodlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. Ilmiy daraja va unvonga ega bo'lish, chet tilini yaxshi o'zlashtirganlik tanlovda ustunlik beradi.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar batafsil ma'lumot olish uchun institutning xodimlar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

Manzil: Oqdaryo tumani Dahbet qo'rg'oni, Amir Temur ko'chasi, 7-uy.

Murojaat uchun telefonlar: +99893-780-24-84, +99893-231-13-26.

Bilasizmi?

IS GAZIDAN ZAHARLANGANDA

BIRINCHI YORDAM QANDAY KO'RSATILADI?

Is gazi ko'zga ko'rinmaydigan, hidsiz, ammo inson hayoti uchun nihoyatda xavfli dushmandir. U har kuni biz foydalanadigan tabiiy gaz, ko'mir, o'tin, benzinning to'liq yonmasligi natijasida paydo bo'ladi va ko'pincha odam uni sezmaganda zaharlanib qoladi. Eng xavfli, is gazi aksariyat hollarda insonga sekin ta'sir qilib, hushingizdan ketmaguningizcha borligini bildirmaydi. Shu sababli is gazidan zaharlanish holatlari uy sharoitida, shamollatish tizimi yetarli bo'lmagan xonalarda, pechka yoki gaz asboblari noto'g'ri foydalanilganda, hammom va dam olish joylarida qayd etiladi.



Is gazi nafas yo'llari orqali organizmga kirib, qon tarkibidagi gemoglobin bilan bog'lanadi va uning kislorod tashish qobiliyatini izdan chiqaradi. Natijada inson tanasida kislorod yetishmovchiligi paydo bo'ladi, avvalo miya va yurak faoliyati izdan chiqadi. Bosh aylanishi, holsizlik, ko'ngil aynishi, ko'krak qafasida og'riq, quloqlarda shovqin, uyqachanlik kabi alomatlar kuzatiladi. Ammo gaz konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, zaharlanish juda tez rivojlanadi. Xususan, inson hushidan ketadi, tutqanoq kuzatiladi, nafas olish to'xtaydi va nafas markazining falajlanishi oqibatida o'lim holati yuz berishi mumkin.

Bunday vaziyatda birinchi yordamni to'g'ri ko'rsatish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Eng avvalo, jabrlanuvchini gaz to'plangan joydan zudlik bilan olib, toza havoga chiqarish lozim. Agar imkoniyat bo'lsa, eshik va derazalarni ochib, xonani shamollatish kerak, ochiq olovdan va elektr jihozlaridan foydalanish qat'iyan man etiladi. Jabrlanuvchini tinch holatga keltirib, tor kiyimlarini bo'shatish, issiq saqlash muhim. Agar inson hushida bo'lsa, issiq cho'y yoki kofe berish mumkin.

Jabrlanuvchi hushsiz bo'lsa, uni yolg'iz qoldirmasdan, nafas olishini tekshirish lozim. Zarur hollarda sun'iy nafas berish, tanani ishqalash, nashatir spirtini ehtiyotkorlik bilan hidlatish mumkin. Eng muhimi, zaharlanish darajasidan qat'i nazar, darhol tez tibbiy yordam chaqirish shart. Chunki is gazidan zaharlanishning oqibatlari ba'zan bir necha kun yoki haftalar o'tib namoyon bo'lishi mumkin.

Is gazidan zaharlanishning oldini olish har bir insonning o'z qo'lida. Gaz asboblari noto'g'ri foydalanish, xonalarni muntazam shamollatib turish, pechka va mo'rilarining sozligini nazorat qilish, yopiq joylarda avtomobilni uzoq vaqt ishlatislik kabi oddiy qoidalarga rioya etish zarur.

Navro'zbek QURBONOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Normurodov Muxlis Djalolovichga (2024-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Talibov Saidakpar Ibragimovichga (2025-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Shoyakulov Olimjon Maxmadiyevichga (2024-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Tashbekova Marxamatga (2007-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-A'uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Nazarov Shamsiddin Shamsiyevichga (2010-yil 2-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Raupov Maxmadkulga (2019-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat

VILOYAT AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

Hozirgi kunda viloyatimiz hududiga tegishli ruxsatnomalarsiz va sertifikatlersiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqatlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) ko'payib ketganligini inobatga olgan holda Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioalaqatlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta'sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlari tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioalaqit hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarini ko'rishlari kerakligi; Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmo-

qlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iyan man qilinishi ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqatlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK), Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioalaqatlar ni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioalaqatlar ni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkiqlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkiqlar vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani, "Yoshlik" MFY.

Telefonlar: 66-616-43-61, 66-616-44-15.

SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.

TOPGANGA MUKOFOTI

Toshkent shahridagi "MEDICINA PHARM" MCHJga qarashli 2019-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 01 097 LGA bo'lgan "NEXIA 3" rusumli avtotransport vositasining davlat raqami belgisi Kattaqo'rg'on shahri hududida tushib qolgan. Ushbuni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99890-606-11-56.

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2025-yil 15-avgustda Ablakimov Shovkiddin Tulibayevichga berilgan MG № 6158 raqamli pensiya guvohnomasi Qo'shrabot tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99833-714-84-84.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi Gulamova Madina Askariyevna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 42312843970027) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "ENGLISH STANDART" oilaviy korxonasining (STIR: 306697473) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Rasayev Bektemir Sidikovichga (2025-yil 20-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Nabiyev Uktam Xalilovichga (2020-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Nabiyev Muzafar Xalimovichga (2019-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Radjabova Roxilla Xadiyevnaga (2024-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Berdirasulov Vali Davurovichga (2025-yil 30-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Muratova Moxira Ablakulovnaga (2025-yil 16-iyulda vafot

etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Azimova Masudaga (2020-yil 18-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Shamsiyev Tolib Nasriddinovichga (2019-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-B'uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xayitboyev Gafur Safarovichga (2025-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xayitboyev Rano Ishkuvatovnaga (2025-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Mustafokulov Olimga (2020-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.



ORZULARIM gullagan maskan

Samarqand shahrining Mirzo Ulugʻbek koʻchasidagi 71-raqamli bu maskan tibbiyot institutida oʻqiydigan har bir talaba uchun qadrdon boʻlishi tabiiy. Negaki, amaliyot degan jarayonning deyarli barchasi 6 yil davomida aynan ana shu goʻshada oʻtadi. Bu Samarqand viloyati markaziy shifoxonasi. Bu oddiy bino emas- inson umri saqlanadigan, umidlarni qayta tiriladigan, taqdirlar kesishadigan, roʻbaroʻ keladigan tabarruk dargoh. 1983-yil 1-sentabrdan boshlab ana shu bino mening uchun ham qadrdon boʻlib qoldi. Va, u hayotimda alohida sahifa ochdi. 1-kursda murgʻak orzular bilan bu maskan ostonasiga katta ishtiyoq va quvonch bilan qoʻygan qadamlarimni, tajribali shifokorlar xatti-harakatiga havas bilan qaraganlarimni hali-hali unutmayman.

Bu hovlidagi har bir bino, har bir odam, hatto bemorlar ham oʻshanda men-ga juda yaqindek edi. Xonalardagi sukut, shifokorlarning tezkor qadamlari – bari-bari-si menga ertangi kunimga chorlov edi. Ana shu tuygʻular yillar davomida men bilan birga oʻsdi, shakllandi. Shu sababli bugun 43 yil oʻtgan boʻlsa ham ana shu taassurotlar ogʻushida yashayman.

Oʻsha kunlarning tongi ham xayolim-menga qadrdon boʻlgan ana shu bino uchun otayotgandek edi. Shifoxona hovlisiga, devorlariga tushgan quyosh nurlari, ixcham chamanlardagi turfa gullar koʻzim-ga umid timsoli boʻlib koʻrinardi. Ehtimol shuning uchundir, darsdan keyin yotoqxo-naga emas, balki shifoxonaga talpinardim. Chunki vrachlar nigohini, bemorlar holatini, hamshiralarni harakatini kuzatish men uchun sukunatda oʻqiladigan darslik edi. Bu binoda men uchun ishing katta-kichigi boʻlmadi. Avval farroshlarga yordam berdim, ehtimol kimdadir bu ish oson, arzimasa tuyular, ammo bemorga koʻmaklashish, uni koʻtarib bosh-qqa yerga oʻtkazish, xonalarni tozalash, tibbiy uskunalarni tayyorlash orqali kamina kasbim eshigini ochayotgan edim. Keyinroq tibbiyot hamshiralarga yordam berishga oʻtganimda ham ularning har bir harakati, oʻgiti menga chinakam dars edi.

Xayriyat, yillar aldamadi, orzularim aldamadi. Aksincha, ular ishonchimni, qatʼiyatimni mustahkamladi.

Shifoxonada urgent kunlari boʻlardi, yaʼni shoshilinch yordam koʻrsatilishi zarur boʻlgan bemorlar shu yerga keltiriladi. Bu ishga faqat tajribali shifokorlarga aralashardi. Vrach-larning sukutlari ham, shoshilinch harakatlari ham havasimni tortardi. Chunki ular insonga ikkinchi hayot eta etardi. Har safar oʻzingga oʻzim «Men qachon oʻsharlarday boʻlaman?» deb savol qoʻyardim. Shunga harakat ham qilardim.

Nihoyat 1986-yil 7-iyulda orzularim amalga oshdi, hayotimda burilish sodir boʻldi. Oʻsha kuni ustoz shifokor Aslam Abbosov qoʻlim-ga tigʻ (skalpel) berdi. Bu 3-4 yillik tinimsiz harakatlarning natijasi edi. «Uka, ishimizni ancha oʻrganding. Yoʻl-yoʻlakay ayrimlarini bajarib koʻrding. Senga endi ishonam boʻla-di. Qani, operatsiyani bajar. Oʻshanda ilk bor qorin pardasidagi jarrohlikni oʻzim bajardim. Garchi dastlab qoʻllarim titragandek boʻlsa-da, qatʼiyatim, ishonchim baland edi. Chunki oldimda inson hayoti, orqamda esa ustoz ishonchi bor edi.

Yillar davomida boshqa organlardagi operatsiyalarni ham bajara boshladim. Tibbiyot men uchun taqdirimga aylandi. Havasim kuchliligidan hammadan avval, ertalab soat 5 da shifoxonaga kelardim. Koʻpchilik uxlayotgan bir paytda kasallik varaqaqlarini oʻqib, tasavvurimni boyitardim. Lekin bu harakatlar meni aslo charchatmas,



aksincha, ruhlantirardi.

Tibbiyot universitetini tugallagach, garchi shifoxonada ishlasamda, soham boʻyicha olim boʻlish orzusi qoʻzgʻaldi. Ammo qancha harakat qilmayin, yoʻlini topa olmadim. Orzu bilan sabr, umid bilan xafalik oʻrtasida yuzlab tanlovlarga duch keldim, ammo ortga qayt-madim. Chunki bu menga faqat unvon yoʻli emas, balki bemorning umid bilan tikilgan koʻzlari, operatsiyadan keyin erkin nafas olayotgan insonning minnatdor nigohlari yoʻli edi.

Hozir ham Samarqandga borsam ana shu shifoxonaning oldidan eʼtiborsiz oʻtib keta olmayman. Chunki u maskanda taqdi-rim toblangan. Aynan ana shu yerda mening orzularim gullagan, qanot qoqqan. Bu orzular yillar davomida antiseptik hidi singgan havo-da, tundagi shoshqin qadamlarda, operatsiya chiroqlari nurida pishib yetiladi. Bu orzularni yengil deb boʻlmaydi. Mehnat, sabr va bar-dosh talab qiladi.

Shifoxona boʻljak vrachni soʻzsiz tarbiya-laydi. U ham menga vaʼda bermadi, iltimos qilmadi, oʻzini «koʻz-koʻz» qilmadi. U meni faqat mashaqqat va masʼuliyatga roʻbaroʻ qildi. Bunday holda sen bu yoʻlni qabul qila-san yoki orqaga qaytasan. Bu yerda oʻrta yoʻl yoʻq.

Bu shifoxona devorlari orasida oʻtgan har bir kun men uchun unutilmas saboq boʻldi, desam adashmayman. Chunki bu yerda inson hayot uchun qanday kurashishini, baʼzan umidlarni soʻngan paytda ham gʻalaba qo-zonishini koʻrdim. Umidsizlikni ham, minnat-dorlik koʻz yoshlarini ham shu yerda koʻrdim. Men, shifokor faqat tanani davolovchigina emas, balki vujudagi qoʻrquv va ogʻriqni, umidni ham bemor bilan birga koʻtaruvchi kasb egasi ekanligiga ishonchim. Bu yerda masʼuliyat nima ekanligini tushundim. Chunki uning bu yerdagi xatoning bahosi tanbeh yoki jazo emas, balki inson hayoti bilan barobar edi. Operatsiyalarda qancha qatnashmay, qancha koʻp kasallarni koʻrmay, shifoxo-na qalbimni toshga aylantirmadi, aksincha, rahm-shafqatni oʻrgatdi. Ogʻriqlarni koʻrgan sari neʼmatlar qadrini bildim: ogʻriqsiz nafas olish, qoʻrquv bilan tong otishi, tomirdagi igna, uskunalarsiz hayot. Shifokor boʻlish orzusi ham auditoriyalarda emas, aynan ana shu shifoxona palatalarida gulladi. Bir narsa-ga ishonch hosil qildim, haqiqat yoʻli hamma vaqt ham ravon boʻlmaydi. Ammo u har doim toza va halol boʻladi. Yana bir narsani angla-dimki, shifoxonada ishlagan har bir shifokor ham ana shunday taassurotlar bilan yurmas ekan. Binobarin, shifoxona qalbi ham libosidek oppoq hamkasb-larim uchun ekan.

Zayniddin NORMAN,
tibbiyot fanlari doktori,
professor,
Oʻzbekiston Jurnalistlar
uyushmasi aʼzosi.

Taksichilikning shunisi yaxshiki, turli feʼl-atvordan tashqari, dunyoning koʻp gapidan xabardor boʻlasiz. Hat-to manzildan manzilgacha gapirmay yetib borgan yoʻlov-chining turishi ham sizga bir maʼlumot-da!

Koʻpincha yoʻlovchilarning, harqalay, suhbatdosh boʻlishini istaysan. Lekin Xudo asrasin, jagʻi tinmaydigan yoki farosatsiz odam oʻtirib qolsa, xayolingda, mashina-ning gʻildiragi ham ogʻir yurayotgandek tuyuladi.

Kecha shaharning chekka koʻchasida bir kampir qoʻl koʻtardi, turishidan oddiygina. Old tomon derazasi-ni ochdim, u ham boshini egib, «Lohutiy koʻchasiga olib bora-sizmi?», deb soʻradi.

- Ha, boramiz, xola, keling.
- Qancha pul olasiz?
- Oʻn ming-da.

Kampir shoshilgancha old oʻrindiqqa oʻtirib oldi. Yomgʻirda iviy boshlagan roʻmoli bilan yuzlarini artgan boʻldi. Men esa odob yuzasidan «Assalomu alaykum», dedim.

- Yaxshimisan, bolam?
- Taksilaram sal qimmat boʻlganga oʻxshaydimi? Bir qa-dam joyga 10 ming boʻlarkan. Ha, endi nima ham derdik, karvon borki, rizqi boʻlak. Sen-am taksimi, bolam.

Kampirning jaydari sodda mulohaza va savollari, ochigʻi, kayfiyatim-ni koʻtardi. Uning gap soʻzlari, sertashvish chehrasi, boshidagi oppoq roʻmoli enamni eslatdi. «Ochiqqina ayol ekan», deb oʻyladim ichimda.

- Shunday, xola. Ishdan keyin ozroq tirikchilik qilaman-da.
- Ukamning oldiga keluvdim. Bechora qamalib qoldi. Pasportim uyda qopti, bu tashkilotda pasporting boʻlmasa, kirgizmas ekan. Ishqilib, hech kimning ishi milisaga tushmasin-da.

Garchi, xayolim yoʻlda boʻlsa-da, kampirning sami-miyati eʼtiborimni tortdi va «Nima gap, xola, tinchlikmi oʻzi», deb soʻradim. U kishi ham shunaqa savolni kutib turgan ekanmi, «poyintar-soyintar» gapirib ketdi.

Hammaga ham Xudoning oʻzi insof bermasa bekor ekan. Ota-onamdan qolgani shu bitta ukam, yoshi ham oltmish uchga kirdi. Oʻzi zoʻr usta, qoʻli gul. Lekin ham-mani ham oʻziga yarasha dushmani boʻlarkan-da. Aslida oʻzi shu ichkilik degan narsani chiqarganning «padargi-nasiga laʼnat». Ana shu kasofat tufayli bitta-ikkita koʻngli qoralar ukamning chakmoniga dori solib, uni ushlab berishibdi. Hozir tergov ketyapti.

Boyaqishning dardi ichida ekan shekilli, har bir voqea-ga sharh berib, meni diqqat bilan eshityapti, deb oʻylab gapiraverdi. Men esa har-har zamonda «himm, haa», deb qoʻyam.

Yaqinda boboyimni kasalxonadan chiqaruvdim. U qurgʻur ham tomdan yiqilib, boshining qopqogʻi ochilib ketdi. Juda qattiq operatsiya qilishdi. Har qalay yaxshi duxturlar bor ekan, kasbu koriga Xudoyim rivoj bersin, umrginasidan baraka topsin, iloyim...

Kampir uzundan-uzoq duo qilib, yuziga fотиha tortdi. Men ham yuzimga fотиha tortdim. Bu yoqda esa mashina koʻp, yoʻl tirband. Ayniqsa, shaharda ish kunlari odatda bu ahvol yangilik emas. Buning ustiga yomgʻir yogʻayot-gani uchun tez yurib boʻlmaydi. Kampir esa gapdan toʻxtamaydi.

Bizlarning zotimiz ulugʻ, bolam. Oilamiz bilan hojimiz. Hajga birinchi boʻlib boboyim bilan oʻgʻlim borib keldi. Oʻtgan yili oʻzim ham ziyoratga borib keldim.

Yoʻlovchining kayfiyatini koʻtarish uchun «E, buna-qa tabarruk joyga pochcham bilan bormabsiz-da» deb qoʻydim. Bu luqma gap kampirning gapini yana qoʻzgʻab yubordi.

E, nimasini aytasan, bolam. Ikki biletga ham pulimiz bor edi. Rejani puxta qilib turganimizda oʻgʻlim oʻzini osib qoʻydi. Yaxshiyam hamsoyalard yordamida uni zoʻrgʻa qutqarib qoldik.

Nima, jonidan biror narsa oʻtganmidi.
Oʻgʻlim juda mehnatkash bola. Yaqinda oʻgʻilchalik ham boʻldi. Biram shirin, biram shirin, uning qarashlariga havasing keladi. Kampir oʻgʻli qolib nevarasini rosa taʼrif-ladi. Keyin ularni ham uzoq vaqt duo qildi.

Unda oʻgʻlingiz nega oʻzini osdi.
Oʻgʻlim yomon bola emas. Doimo tashvish bilan yuradi, koʻp ishga ulguradi. Baʼzan xalta-xalta pul topadi. Oʻsha kuni koʻchadagi besh-oltita tanishlariga bir kafeda ziyofat bergan. Haligi joʻralari aragʻiga nimadir qoʻshib, uni karaxt qilishgan. Soʻng mashinadagi hamma pullarini oʻgʻirlab ketishgan. Kayf taʼsirida bolam nima boʻlganini bilmagan. Kallasi joyiga tushgandan keyin uyga kelib, asabi chiqqanmi, puliga achinganmi, ishqilib oʻzini os-gan. Yaxshiyam cholim shoʻrlilik hushyorlik qilgan, koʻngli negadir bezovta boʻlib, ayvonni aylansa, oʻgʻlimni osilgan holda koʻrgan. Xudo bir asragan-da.

Keyin nima boʻldi?
Nima boʻlardi, bolam. Jonini saqlab qoldik. Azob chekmasin, yana yomon yoʻlga yurib ketmasin deb, oʻzimni oʻrnimga otasi bilan uni hajga joʻnatdim. Ammo bolam aqli boʻb keldi umradan. Xudoga shukr. Jundayam yaxshi bola boʻldi. Endi umuman ichmaydi, chekmaydi, faqat roʻzgʻorim, bola-chaqam deb yuguradi.

Men garchi qizi boʻlsa-da, kampirning gaplaridan zerikayotganligimni sezdim. U esa xuddi ertak aytgandek tutadi oʻzini. Shu payt qoʻlidagi telefoni jiringladi, kim bilandir uzoq salom-alik qildi. Soʻng tez orada borishini aytib goʻshakni oʻchirdi. Manzilga yetib borganimizda kampir sumkasidan pul chiqarar ekan, bir pas oʻylanib qoldi, soʻng menga yuzlandi.

Taksichi bola, mana shu yer mening uyim, lip etib pasportimni olib chiqsam, meni boyagi joy-ga yana eltib qoʻyasanmi? Yana taksi ushlab ovora boʻlib oʻtirmay...



Men rozi boʻlib tezroq uyga kirib-chiqishiga ishora qildim. Kam-pir haqiqatan ham uyiga chopqillab borib, chopqillab qa-ytdi. Ozgina boʻlsa-da, tashqarida yogʻayotgan yomgʻirning goʻzalligiga qarab tin oldik. Baribir tabiat-ning oʻzi odamga yaxshi kayfiyat bagʻishlaydi-da. Shu alfozda yaxshi qoʻshiq eshitib, huzur qilib tursam, kampir hovliqib kelib qoldi. «Kutib qolmadingmi?» deb soʻragan boʻldi-uy, «ketdik, bolam, tezroq hayda», deb qistalang qildi.

Milisaxonaga jiyalarim ham kelishibdi. Dadamning oldiga birga kiramiz, tez keling deyishyapti. Ammaginasi oʻrgilsin, oʻzim katta qilganmunda ularni. Shuning uchun uydan chaq-chuq, turshak oldim, har na quruq borgan-dan koʻra... Senam uylangansanmi, bolam?

Ha, xola. Bitta oʻgʻlim bor.
Kampirning jagʻi yana ochilib ketdi.
Umringdan baraka top. Ana shu oʻgʻlingga oʻzing bosh boʻl. Uzoqʻimni yaqin qilyapsan. Xudoyim nimaiki mushkuling boʻlsa, oson qilsin. Qayda boʻlsang ham Al-lohning panohida boʻl. Yigit boshing egilmasin, nomard-ga ishing tushmasin, hamisha omadningni bersin.

Kampir yana shunaqa duo qildi, yuziga fотиha tortdi. Bu yaxshi gaplardan koʻnglim koʻtarilsa-da, uning koʻp gapirganidan feʼlim aynib turdi. Kampir esa xuddi fikrimni bildiray yana javrardi:

Har doim duo olib tur, bolam. Duoda gap koʻp. Men uyqumda ham duo qilaman. Mana koʻrsan, mening duomni olding. Bugun ishlaring omadli boʻladi. Ishqilib topganingni barakasini bersin. Oʻtgan kuni qizimning oʻlgan kuni edi. Boyaqish, bolam juda yosh ketdi-da! Bolalari chirqirab qoldi. Koʻp qatori kovid degan balo-ga duch keldi, oʻpkasiga oʻtibdimi, qaytib oʻnglanmadi. E-e-e, taqdir ekan, ishqilib hammaning ham bolasi orqa-da qolsin ekan... Dunyo shunaqa ekanki, yaxshi kuning ham, yomon kuning ham sendan soʻramay oʻtib ketav-erar ekan. Tashvishlar bilan boʻlib, umringning qanday oʻtganini ham bilmay qolar ekansan.

Nima uchundir xola birdan mungli tus oldi. Qaytib ga-pirmadi. Faqat mashina derazasidan yomgʻir tomchilari-ga termulib boraverdi. Ochigʻi, uning xomush chehrasiga rahmim keldi. Nazaridagi ichida tanriga yuragidagi oʻtinchini aytaypti. Ichida pichirlab aytaypti.

Keldik, xola.
E, keldikmi, baraka top bolam!
Kampir soʻmkasidan pulni olib uzatar ekan, yana duo-ga qoʻl ochdi.

Rahmat, bolajonim, kasb-koringga baraka bersin, biringga ming bersin. Ilohing, yaxshi niyatlaringga yet. Oʻzingni ehtiyot qil, bolam.

Ochigʻi, xayollarim chuvalashib ketdi. Kampirning siymosi shuurimga joylashib qoldi. mening yuragim-ni ham qayeridadir ogʻriq paydo boʻlganga oʻxshadi. Sergap bu ayolning shuncha dardni koʻtarib yurganiga ishonging kelmaydi. Buncha chidam, bardoshni qaydan olgan ekan u. Nahotki, odamni ana shunday sinov uchun yaratgan. Biz oddiygina, soddagina deb oʻylagan har bir kishi ham ana shunday tashvishlar ogʻushida boʻlishi mumkinligini oʻylasam ogʻrinib qolaman. Lekin bu im-tihonlarga chidab, kampirday dunyoning umidini kifti-ga olib yurgan ayollardan oʻrgangim keladi. Vaholanki, zaminni tutib turgan bir juft kaft, mabodo holdan toysa, uning uchun dunyo ham tugaydi. Yaxshiyam ana shu juft kaftni yoʻlovchim boʻlgan kampir kabi bardoshi mustah-kamlar ushlab turibdi.

Temurbek TOYIROV,
Kattaqoʻrgʻon tumani.

ALLOMANING HAR SO‘ZI HIKMAT

Alisher Navoiyning asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, chuqur falsafiy g‘oyalar, hayot haqiqatiga yaqin, xalqona ruhdagi ibora va hikmatli so‘zlar orqali ifodalangan jonli tasvirlar ko‘z oldimizga keladi.

Navoiy ijodida iboralar oddiy bezak emas, balki ma‘noni teranlashtiruvchi, obrazni jonlantiruvchi asosiy badiiy vosita. Mutafakkir xalq nutqida shakllangan tayyor iboralarni asar matniga mahorat bilan kiritib, ularni yangi badiiy kontekstda qo‘llaydi. Masalan, insonning holatini, ruhiy kechinmalarini, ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ko‘llangan barqaror birikmalar she‘riy va nasriy asarlariga tabiiylik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Bu esa shoirning til imkoniyatlarini chuqur anglagani, xalq tafakkuridagi obrazli fikrlash usulini mukammal o‘zlashtirganidan dalolat beradi. Iboralar orqali u so‘zga milliy kolorit, ruhiy ifodadorlik va estetik kuch bag‘ishlaydi.

«Xazoyin ul-maoniyy» dostoni tilidagi frazeologik birliklarning leksik-grammatik xususiyatlarini tadqiq etgan olim E.Umarov shoir qo‘llagan *“ko‘zi yorudi”* va *“ko‘zim yorur”* frazeologik birliklarini misol keltiradi. Navoiy qo‘llagan *“ko‘z uchi bilan boqmoq”*, *“ko‘z uchidin”* iborasini asosli misollar bilan ko‘rsatadi.

Ya’ni, Navoiy tilida *“ko‘z”* so‘zi faol qo‘llanib, ular uch ma’noga ega bo‘lgan: 1. Ko‘z; 2. Ko‘rish qobiliyati, ko‘z qarash; 3. Nuqtai nazar, fikr, dunyoqarash. Jumladan, shoir asarlarida *“ko‘ziga miyl tortmoq, ko‘zga kiyurib, ko‘zlari tang kelmoq, ko‘z tikmoq, ko‘z tushmoq, ko‘ziga to‘tiyo bo‘lmoq, ko‘z uchidin boqmoq, ko‘zidin g‘oyib bo‘lmoq* kabi somatik frazeologizmlar qo‘llanilgan.

Adabiy tilda *“ko‘zi uchib turibdi”* iborasi *“ko‘rish ishtiyoqida emaslik”* ma‘nosini bildiradi. Bu frazeologik birlik asosan salbiy ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Lekin badiiy matnda bu ibora ham salbiy, ham ijobiy ma’no ifodalashga xizmat qilishi mumkin.



Navoiyning «Badoye’ ul-bido‘ya» asaridan olingan quyidagi matn parchasi fikrimizning yorqin dalil bo‘ladi:

Ko‘zum ucharki, humoyun yuzingni ko‘rgay bot, Biaynih anga kirpiklar o‘lmish ikki qanot.

Shuning uchun frazeologik birliklarning o‘zgarishi, transformatsiyasi va shu bilan bog‘liq masalalar nazariy frazeologiyada hamda pragmatik, stilistik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

“Qo‘l” komponentli frazeologizmlar ham shoir asarlarida faol qo‘llangan. Masalan, «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da ko‘rsatilishicha, shoir asarlarida *“qo‘ldin bermak”* (qochirmoq, o‘z ixtiyoridan chiqarib yubormoq), *“qo‘ldin solmoq”* (qo‘ldan chiqarmoq), *“qo‘l so‘nmak”* (qo‘l uzatmoq) kabi frazeologizmlar

qo‘llangan.

“Oyoq”, “ayoq”, “ayog” so‘zlari qadimgi, umumturkiy so‘zlardan biri bo‘lib, odam, hayvon, qush, umuman, jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmlashi uchun xizmat qiladigan a‘zo ma‘nosini bildiradi. Bu umumturkiy so‘z yordamida tilimizda o‘ttizdan ortiq iboralar shakllangan. Shulardan biri *“ayog’ uzotmoq”* iborasi bo‘lib, *“Layli va Majnun”* dostonida *“oyoqni cho‘zib yashamoq, yurmoq”* ma‘nolarini ifodalaydi:

G’am za’fida dasht uzra yotsang, Qum bistar ekin ayog’ uzotsang. Har bargki xastavor yotti, Yer bistarida oyoq uzatti.

Hozirgi vaqtda *“oyoq uzatmoq”* iborasi tilimizda faol qo‘llanadi. Uning dastlabki ma‘nosi *“ko‘ngli tinchimoq, g’am-tashvishdan holi bo‘lmoq”*, ko‘chma ma‘noda esa *“o‘lmoq, jon bermoq”*dir. Sh.Rahmatullayev lug‘atida *“oyog‘(i)ni uzatmoq”* iborasining faqat *“qazo qilmoq”* ma‘nosi ko‘rsatilgan.

Shoir asarlarida ijtimoiy munosabatlarni ochib berishda ham iboralar muhim o‘rin tutadi. Adolatsizlik, zulm, ikkiyuzlamachilik, riyo kabi illatlar xalq tilida shakllangan obrazli iboralar orqali fosh etiladi. Bu iboralar o‘quvchiga quruq ta’lim-tarbiya emas, balki hayotiy tajribaga tayangan, ta’sirchan va ishonchli fikr sifatida yetib boradi. Shu tariqa Navoiy iborani axloqiy g‘oyani ommaga yetkazishning kuchli publiksistik vositasiga aylantiradi. Tilimizda keng qo‘llanuvchi *“bosh”* komponentli *“boshiga tushmoq”, “boshiga tufroq sovurmoq”, “boshiga urmoq”, “bosh ostonaga yetmoq”, “boshi quyi bo‘lmoq”, “bosh tortmaslik”* singari umumturkiy frazeologizmlar jamiyatdagi ayrim ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, *“Layli va Majnun”* dostonida *“boshiga tushmoq”* iborasi *“og‘ri ahvolga tushmoq, tashvishga tushmoq”* ma‘nolarini bildirgan:

Bir kun erikib mahi muaddab, Tushti boshig‘a havoyi maktab.

Hozirgi vaqtda *“boshiga tushmoq”* iborasi *“hayotida kutilmagan tarzda sodir bo‘lmoq”* ma‘nosida qo‘llanadi.

“Boshni quyi solmoq” iborasi Alisher Navoiy asarlari-da *“egilmoq, mute bo‘lmoq, taslim bo‘lmoq”* ma‘nolarini ifodalash vositasi sifatida qo‘llangan:

Maqsudlarin chu aylabon fosh, Posux tilayu quyi solib bosh.

“Quloq” so‘zi umumturkiy bo‘lib, *“eshitish organi va uning tashqi qismi”* degan ma‘noni bildiradi. Tilimizda ana shu somatizm so‘z yordamida *“quloq bermoq”, “quloqdan qolmoq”, “quloq‘iga quymoq”, “quloq‘idan nari ketmaslik”, “quloq‘i ding bo‘ldi”, “quloq‘ini pishitmoq”, “quloq‘ini burab qo‘ymoq”, “quloq‘i og‘ir”, “quloq‘i tinchidi”, “quloq‘ini tishlab ketmoq”, “quloq-miyasini yemoq”, “quloqlari ostida shavla qaynatmoq”, “quloq solmoq”, “quloqqa olmoq”, “quloq‘iga yetkazmoq”, “quloq‘idan kun ko‘rinadi”* singari juda ko‘plab umumturkiy frazeologizmlar shakllangan. *“Layli va Majnun”* dostonida xuddi ana shunday umumturkiy iboralardan *“quloqqa olmoq”, “quloqqa solmoq”, “quloq‘iga yetmoq”* kabilar qo‘llangan. Jumladan, *“quloqqa solmoq”* va *“quloq‘iga yetmoq”* umumturkiy iboralari eshitmoq, xabardor bo‘lmoq, xabar topmoq ma‘nolarini bildiradi:

Bu bir necha so‘z quloqqa olg‘il, Balkim necha dur quloqqa solg‘il.

Alisher Navoiy ijodida frazeologik birliklar tilning boy va ifodali vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilgan. Ularning yordami bilan Navoiy asarlarida hissiyotlar, g‘oyalar va tasvirlar aniq, jozibali va ta’sirchan tarzda ifodalangan. Navoiy asarlaridagi frazeologizmlar ko‘pincha qadimgi turkiy va forsiy adabiyotlardan olingan bo‘lib, ular musiqiy ohang, takrorlash, metafora va majoziy ma‘nolarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy frazeologizmlardan xalqning turmush tarzini, qadriyatlarini va tilini ifodalashda foydalangan. Bu frazeologizmlar orqali o‘quvchida Navoiy zamonasi va xalqining psixologiyasi, tafakkuri va dunyoqarashi haqida chuqur tasavvur hosil bo‘ladi.

Umida RASHIDOVA,
Samarqand davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.

► Prezident qaroriga ko‘ra KITOB — kelajakka sarmoya: yangi jamg‘arma nima beradi?

Bugun kitob haqida gapirish oddiy mavzu emas. Chunki kitob — bu shunchaki qog‘oz va siyoh emas, balki millatning tafakkuri, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi.

Shu ma’noda Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori jamiyatni ma’naviy jihatdan uyg‘otishga qaratilgan, aniq maqsad va aniq mexanizmlarga ega hujjat bo‘ldi. Uning asosiy g‘oyasi oddiy, lekin juda muhim: kitob o‘qiydigan inson — ongli fuqaro, ongli fuqaro esa taraqqiyotning tayanchi.

Qarorda 2026-2030-yillar uchun ulkan, ammo hayotiy maqsad qo‘yildi — har bir fuqaro yiliga o‘rtacha 10 ta kitob o‘qishi kerak. Bu raqam qog‘ozda oddiy ko‘rinishi mumkin, ammo uning ortida jamiyat tafakkurini o‘zgartirish, yoshlarni telefondan kitobga qaytarish, ma’naviy bo‘shliqning oldini olish kabi katta vazifalar turibdi. Eng muhimi, davlat buni faqat targ‘ibot bilan emas, amaliy qadamlar bilan ta’minlamoqda.

Ana shunday amaliy qadamlardan biri — Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kito-bxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasining tashkil etilishi bo‘ldi. Bu jamg‘arma kitob haqidagi gaplarni shior-dan chiqarib, real qo‘llab-quvvatlashga aylaniradi. Yosh yozuvchilar, ayniqsa, bolalar adabiyoti yo‘nalishida ijod qilayotgan mualliflar uchun grantlar ajratilishi, asarlarining nashr etilishi, bu - iste’dod e’tiborsiz qolmasligining yaqqol isboti.

Bundan tashqari, tanlov orqali saralangan iste’dodli mualliflarga bir yilgacha har oy bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida haq to‘lanishi belgilandi. Bu qaror ijodkorga “tirikchilik uchun emas, ijod uchun yoz” degan ishonchni beradi. Chun-ki haqiqiy adabiyot xotirjam tafakkurdan tug‘iladi.

Yana bir muhim jihat — tarjima masalasi. Eng sara xorijiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga, milliy asarlarimizni esa xorijiy tillarga tarjima qilish va chop etish xarajatlarining katta qismi davlat tomonidan qoplab beriladi. Bu o‘zbek kitobxoni uchun dunyo adabiyotiga keng eshik ochsa, milliy adabiyotimiz uchun xalqaro maydonga chiqish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur qaror kitobni jamiyat markaziga olib chiqmoqda. Kitob — tarbiya, kitob — tafakkur, kitob — kelajak ekani ta’kidlanmoqda. Zero, bilim-ga kiritilgan har bir sarmoya — O‘zbekistonning ertangi kuniga qo‘yilgan ishonchli poydevordir.

Zebiniso YUSUPOVA,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Baxshitepada buyuk jadid Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirga hali ko‘p bo‘lmadi. Unda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan jadidshunos olimlar, ijodkorlar allomaning yurt ozodligi, millat bolalarining ta’limi yo‘lida qilgan xizmatlari haqida ilmiy dalillar bilan gapirdi. Ulug‘ jadidning ma’naviy merosi mustaqillikning qadr-qimmatini, yurt obodligi va xalqning ma’rifatli bo‘lishida bugun ham qimmatli manba ekani ta’kidlandi. Tadbir davomida ulug‘ jadidning byusti ochildi, jadid nomidagi go‘zal bog‘ tashkil etildi. Albatta, bu tadbir ko‘plab ommaviy axborot vositalarida yoritildi, jamoatchilik bu tashabbusni mamnuniyat bilan e’tirof etdi.

Bu dunyo

Torga tordir bu dunyo, Kengga kengdir bu dunyo. Bir kelib bir ketarlik, Bir bor, bir yo‘q bu dunyo.

Tug‘ilishlar yo‘rgaksiz, Ketishlar boz ko‘ylaksiz. To‘yimi yo‘q, tusi yo‘q, Sozu nosoz, bu dunyo.

Yaxshi kimu yomon kim, Yaxshiyu yomon hakim. Nima yolg‘on, nima chin, “Lekin”, “biroq” bu dunyo.

Mard maydonda hamisha, Nomardda yo‘q andisha. Yuzsizlar ishi peshsa, Ho‘lu quruq bu dunyo.

Suvi birdir, birdir yer, Haqdin qo‘yilgan muhir.

Taloshuv, tortishuv zo‘r, Butu yamoq bu dunyo.

Murodiga yetgan bor, Sarsonu xor o‘tgan bor. Qarshilar bir xil mozar, Uzuq-yuluq bu dunyo.

To‘g‘ri yurgan bo‘lmas xor, Egrini holi abgor. Jabbor erur xabardor, So‘ngi so‘roq bu dunyo.

Suyundik, e tafakkur, Boriga aylab shukr. Soya emas, qoldir nur, Oqu qora bu dunyo.

Suyundiq Mustafu NUROTOIY.

Ko‘hna sergi

Yetti kunlik oydek husni go‘zal edi, Latofati betimsol bir g‘azal edi, O, ishqim ham ko‘hna tuyg‘u azal edi, Men devona, telbalarcha sevar edim.

Qad-bo‘yiga yarashardi libosi ham, Havas erdi boshqalarga ibosi ham, Qamashtirar ko‘zim ko‘zi ziyosi ham, Men devona, telbalarcha sevar edim.

Erta sahar oshiqardim jamoliga, Oyoqlarim ergashardi dil holiga, Javob izlab ko‘zi berar sevara, Men devona, telbalarcha sevar edim.

O, besabr tanaffusni kutar edim, Qiz yonidan shamol kabi o‘tar edim, Insho emas, chiroyini bitar edim, Men devona, telbalarcha sevar edim...

Davlat RUSTAMOV, Toyloq tumani.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

7-FEVRAL

Oysha MAVLONOVA – (1922-1991) Turkiston viloyatida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti. **Rahmatullo QO‘NG‘UROV** – (1933-1994) Forish tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori.

10-FEVRAL

Saydi UMIROV – (1938-2020) Payariq tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi.

14-FEVRAL

Xolmuhammad NURULLAYEV – (1954-2006) Urgut tumanida tug‘ilgan. Jurnalist, jamoat arbobi. «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 780 nusxada chop etildi. Buyurtma 50. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

D.TO‘XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda